FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

VALIYEVA MUXAYYO SALIMOVNA

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDAGI MAQOLLARNING LINGVOKOGNITIV VA LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

UO‘K: 811.512.133’255.2:811.161.1’255.2:82-84

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Valiyeva Muxayyo Salimovna
O‘zbek va rus tillaridagi maqollarning lingvokognitiv va lingvokulturologik tadqiqi 5

Валиева Мухайё Салимовна
Лингвокогнитивное и лингвокультурологическое исследование узбекских и русских пословиц 25

Valiyeva Mukhayyo Salimovna
Linguocognitive and linguoculturological study of Uzbek and Russian proverbs…51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 56

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

VALIYEVA MUXAYYO SALIMOVNA

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDAGI MAQOLLARNING LINGVOKOGNITIV VA LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Fil16787 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qo‘qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg‘ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta’lim portal (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Usmanov Farxad Faxriddinovich** filologiya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Sobirova Zilola Mahmudovna** filologiya fanlari doktori, dotsent
	Jo‘rayeva Bibish Muhsinovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/2025.27.12.Fil.10.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “26” noyabr kuni soat 8:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, B.Marg‘inoniy ko‘chasi, 105-uy; Tel: (99873) 244-44-02; e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (859 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. Tel: (99873) 244-44-02; e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “12” noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “12” noyabr dagi 50 raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Y.Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, fil.f.d., professor

A.I.Saminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, fil.f.f.d., (PhD), dotsent

M.T.Abdupattoyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fil.f.d., professor

Сканировано с CamScanner

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida jamiyat a'zolarining o'zaro muloqot mexanizmiga e'tiborning kuchayishi natijasida tilshunoslikning hozirgi taraqqiyot bosqichida til unsurlariga antropotsentrik nuqtayi nazaridan qarash va ularga "til va uning sohibi" munosabatdorligi asosida baho berish ustuvorlik qilmoqda. Buning natijasida inson kognitiv faoliyatini, tafakkur qilish, olamni tasavvur qilish jarayonini yoritishga qaratilgan, borliq – til – ong munosabatlarini aks ettiruvchi kognitiv tilshunoslik hamda ushbu jarayonlarni ijtimoiy, psixologik, milliy-madaniy, mental va aksiologik belgilar uyg'unligida tadqiq etishga qaratilgan kommunikativ lingvistika rivojlandi. Jonli muloqot konnotatsiyaga, okkazional qo'llanishlarga, fikrni lo'nda, aniq va jozibali bo'lishini ta'minlovchi vositalarga boyligi bilan alohida e'tiborlidir. Xalqning boy mental xususiyatlarini, uning idrokini yorqin namoyon etuvchi hodisalardan biri bo'lgan maqollarni til va ong, til va madaniyat birligida tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, kognitiv faoliyatidan darak beruvchi paremiologik birliklar, xususan, maqollar va ularning kommunikatsiyadagi o'rnini antropotsentrik planda tadqiq qilish, pragmatik va lingvokognitiv xususiyatlarini ochib berishga katta e'tibor berilmoqda. Tilshunoslik ilmiy maktablarida paremiologiya, qiyosiy paremiologiya, lingvomadaniyatshunoslik masalalarini nazariy va ilmiy jihatdan o'rganish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, maqollarni qiyosiy tahlil qilishda ushbu xalqlarning dunyoqarashidagi umumiylik va farqlarni aniqlash mumkin. Maqollar konseptlarning kognitiv va madaniy ifodalanishi bo'lib, qiyosiy tahlil ushbu konseptlarning xalqlararo farqlari va umumiyligini aniqlashga yordam beradi. Shu sababli, madaniy belgilarni o'zida yaqqol namoyon etuvchi ushbu birliklarning qiyosiy va chog'ishtirma aspektdagi tadqiqi nazariy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Bugungi mustaqillik sharoitida tilshunoslik fanini rivojlantirish, yoshlarni ona tiliga va xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ushbu yo'nalishdagi tadqiqot ishlarini takomillashtirish, "raqobatbardosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yar ekanmiz, xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish"[1] zarurati paydo bo'ldi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida asosiy til ko'nikmalari: tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirishni shakllantirish, xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish maqsadida mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilish[2] kabi vazifalar belgilangan. Bu borada paremik birliklar, xususan maqollarni ikki til orasida qiyoslash, maqollar orqali ikki madaniyat o'rtasidagi umumiylik va xususiylikni aniqlash, tahlil qilish va o'rganish muhim

[1] Mirziyoyev. Sh. Chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor materiallari. 06.05.2021. https://president.uz/oz/lists/view/4327 (murojaat sanasi 30.10.2024).

[2] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvar VM-34-son Qarori https://lex.uz/ru/docs/-5831978?ONDATE=20.10.2022%2000 (murojaat sanasi 30.10.2024).

ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda maqollarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, ularning xalq madaniyatidagi o‘rni, xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi aks etganligini dalillashga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ko‘p tadqiqotlar alohida tilda yoki madaniyatda o‘tkazilgan. Ammo aynan o‘zbek va rus tillaridagi maqollarning lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada mavjud emas.

Shu jihatdan, mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6884-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi VM-610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish sifatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 19-yanvar VM-34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Til – nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkurni shakllantirish bilan bir qatorda xalqning madaniyatini saqlovchi vazifani ham bajaradi. Til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi jahon tilshunosligida G.Lakoff, M.Jonson, Ch. Filmors, R.Langacker, A.Vejbitskaya, V.Teliya, V.Maslova, Y.Stepanovlar [3] tomonidan olib borilgan qator ilmiy

[3] Lakoff G., Johnson M., Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980; Fillmore Ch. J.Frame semantics // Linguistics in the Morning Calm: Selected Papers from the SICOL-1981. – Seoul: Hanship, 1982; Langacker R.W. Cognitiv Grammar: A Basic Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2008; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996; Телия В. Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа Языки русской культуры, 1996; Маслова В.А. Лингвокультурология. 4-е изд., стер. – М.: Академия, 2010; Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа Языки русской культуры, 1997.

tadqiqotlarda o‘rganilgan va atroflicha yoritilgan. O‘zbek tilshunosligida kognitiv yo‘nalishga Sh.Safarov [4] asos solgan. Shuningdek, tilshunos olim A.G‘.Muhiddinov [5] o‘z doktorlik dissertatsiyasini lingvokognitiv va lingvokulturologik muammoga bag‘ishlab, til va tafakkurning ajralmas kognitiv tizim ekanligini, madaniyat kontenti inson ongida til orqali ifodalanishini bayon etgan.

Maqol va matallar antropotsentrik, aksiologik, kognitiv, struktur-semantik, qiyosiy-tipologik, lingvopoetik va lingvomadaniy jihatdan keng o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda maqollarda til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni namoyon bo‘lishi, inson tafakkurida metaforaning o‘rni, maqollarning umumiy va milliy xususiyatlari va ulardagi obrazlilik tahlil qilingan. Paremiologiya muammolarini jahon tilshunosligida paremiologlar W.Mieder, A.Krikmann, N.R.Norrik, A.Taylor [6] kabi olimlar tadqiq etgan bo‘lsalar, rus tilshunosligida maqollar ustida tadqiqot olib borgan Y.V.Ivanova, B.T.Kasharokov, Y.A.Osheva, N.N.Semenenko, L.A.Babitova, Y.A.Ivanchikova, Y.Kubryakova, G.Permyakov[7] kabi olimlarning ishlarini e’tirof etish mumkin.

Xususan, rus filologi M.I.Shaxnovichning [8] “Русские пословицы и поговорки как исторический источник” (1936), “Краткая история собирания и изучения русских пословиц и поговорок” (1936) nomli dissertatsiyasida maqollarga alohida e’tibor qaratilgan. U rus tilidagi mavjud bo‘lgan paremiografiya bo‘yicha adabiyotlarning har bir qismini sinchkovlik bilan o‘rganib chiqdi va ushbu mavzu bo‘yicha 1435 ta asarni o‘z ichiga olgan birinchi bibliografik ko‘rsatkichni tuzgan. M.I.Shaxnovich rus paremiografiyasidan tarix, oilaviy munosabatlar, huquq, til va dinni o‘rganish uchun foydalanish mumkinligini isbotlagan.

O‘zbek folklorshunoslik va tilshunosligida B.S.Jo‘rayeva[9], N.B.Saparova[10], P.U.Bakirov [11] , M.Djusupov, K.Y.Alibekova, Sh.Majitayeva [12] lar maqol va

---

[4] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.

[5] Муҳиддинов А.Ғ. Тафаккур ва тил когнитив жараёнларининг уйгунлиги маданият контентини вербал идентификациялаш негизи сифатида.: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2021.

[6] Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004; Litovkina A.T. Anti-provebs and modern transformations of proverbial wisdom. – Budapesht, 2010; Norrick N.R. How Provebs Mean: Semantic Studies in English Provebs. – Berlin: De Gruyter, 1985; Taylor A. The Proveb and An Index to The Proveb. – Amazon, 1996.

[7] Иванова Е.В. Пословичная концептуализация мира: Дисс. … д-ра. филол. наук. – СПб.: СПб.ГУ, 2003; Кашароков Б.Е. Пословицы русского, немецкого и кабардино-черкесского языков как источник изучения культурно-языкового сознания: структурно-семантический и лингвокультурологический аспекты: Дисс. … д-ра. филол. наук. – Краснодар: Кубанский Губ., 2004; Ошева Е.А. Лингвокультурная специфика паремиологического пространства (на материале русского и английского языков): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Пермь, 2013; Семененко Н.Н. Лингвокультурологическое описание структуры и семантики паремии: Дисс. …канд. филол. наук. – Белгород, 2002; Бабитова Л.А. Английские и кабардино-черкесские пословицы и поговорки в прагмалингвокультурологическом аспекте: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Махачкала, 2013; Иванчикова Е.А. Об основном признаке фразеологических единиц // Проблемы фразеологии. Исследования и материалы. – М.: 1964; Кубрякова Е.С. Язык и знание. – М.: Языки славянской культуры, 2004; Пермяков. Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988.

[8] Шахнович М.И. Жизненный и творческий путь // Anthropologu.Ru. – URL: http: // anthropology.ru /ru/text/tipsina/mihail-iosifovich-shahnovich-zhiznennyy-i-tvorcheskiy-put (murojaat sanasi: 12.05.2023).

[9] Жўраева Б.С. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари: Филол. фан. д-ри. (DSc) дисс. ... автореф. – Тошкент, 2019.

[10] Сапарова Н.Б. Лингводидактические основы обучения студентов-казахов номинацентрическим пословицам русского языка: Автореф. дисс. … канд. пед. наук. – Ташкент, 2001.

matallarning qiyosiy, g‘oyaviy-badiiy, leksik, leksik-stilistik, grammatik tahliliga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, rus va o‘zbek tilidagi antropotsentrik maqollarni aksiologik jihatdan tahlil qilish, ularda antropomorfik kodni ifodalanishini aniqlash R.U.Madjidova [13] ning doktorlik, nominasentrik maqollarning strukturasi va semantikasini tadqiq etish G.N.Sindibayevaning [14] nomzodlik dissertatsiyasini yaratilishiga asos bo‘lgan. O.U.Xolmatova[15] maqollarning kognitiv va semantik qonuniyatlarini aniqlash va tasniflash ustida tadqiqot olib borgan. Shuningdek, tilshunos olim D.S.Turdaliyeva[16] o‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etib, ularning badiiy-estetik tabiati, obrazlilik tizimi va til vositalari orqali ma’no kuchaytirish mexanizmlarini aniqlab bergan. D.I.Mirzayeva [17] o‘z ilmiy tadqiqotida o‘zbek va ingliz tilidagi maqol va matallarni qiyosiy, lingvomadaniy va pragmatik jihatdan tahlil qilgan bo‘lsa, Sh.Sh.Qalandarov [18] maqollarda evfimizatsiya jarayonini lingvomadaniy muhit bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgangan.

Shu yo‘nalishda M.Yeskeyeva, Q.Yolchiyevlar[19] tomonidan tuzilgan “Qozoq va o‘zbek tillarining qiyosiy paremiologik lug‘ati” muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, u paremiologik birliklarni qiyosiy aspektda o‘rganish imkonini yaratadi. Bu kabi ilmiy ishlar, maqol va matallar tadqiqoti nazariy jihatdan mustahkam asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Biroq o‘zbek tilshunosligida o‘zbek va rus tilidagi maqollarni lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatdan kompleks tahliliga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar mavjud emas.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va rus tillaridagi maqollarni lingvokognitiv va lingvomadaniy nuqtai nazardan chog‘ishtirish, shu asosda maqollarning milliy va madaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

ikkilamchi nominatsiya lingvistik tadqiqot obyekti sifatida tushuncha, nom va realiyaning birlashishidan shakllanishini asoslash, nomlash jarayonida inson omilining o‘rnini ko‘rsatish;

---

[11] Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале русского, узбекского и казахского языков). – Ташкент: Фан, 2006.

[12] Джусупов М., Алибекова К.Е., Мажитаева Ш. Специальная лексика и пословицы (лингвоконтрастивные и методические аспекты). – Ташкент: MERIYUS, 2013.

[13] Маджидова Р.У. Аксиологическое исследование антропоцентрических пословиц (на материале узбекского и русского языков): Дисс. … д-ра. филол. наук. – Фергана, 2020.

[14] Сындыбаева Г.Н. Структура и семантика номинацентрических пословиц тождества: Дисс. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1998.

[15] Xolmatova O.U. O‘zbek xalq maqollarining lingvokognitiv xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2024.

[16] Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2019.

[17] Мирзаева Д.И. Ўзбек-инглиз тилларидаги мақол ва маталларнинг лингвокультурологик ҳамда прагматик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Андижон, 2022.

[18] Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфимизацияси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019.

[19] Yeskeyeva M., Yo‘lchiyev Q. va b. Qozoq va o‘zbek tillarining qiyosiy paremiologik lug‘ati (rus va ingliz tillaridagi izohlari bilan). – Astana, 2022.

maqollarda metaforizatsiyaning kognitiv asoslarini yoritish, belgilangan obyektning tushunchaviy aksi sifatida va qayta fikrlanayotgan so‘zning o‘xshashlik yoki belgilar analogiyasi asosida qayta fikrlash usulini o‘rganish;

maqollarni freym va ssenariy sifatida o‘rganishda freym tuzilmasiga, freym elementi bo‘lgan slotlarga va ssenariyga, freym realizatsiyasida madaniy va empirik shartlangan variantlarni aniqlash;

maqollarning reprezentativ va ekspressiv vazifalarini, ularda madaniy kodlarning aks etishini hamda tematik guruhlarini aniqlash;

o‘zbek va rus tillarida olam manzarasining ayrim fragmentlarini maqollar orqali konseptuallashtirish muammolarini o‘rganishda o‘zbek va rus konseptosferasini tashkil qiluvchi asosiy tushunchalarni tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek[20] va rus[21] tillaridagi maqollar matni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va rus tillaridagi maqollarning lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvomadaniy, tasniflash, kontrastiv, tavsifiy-tahliliy, statistik, analitik hamda komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va rus tillaridagi maqollarning ichki konseptual tuzilishi zidlik, metaforik va simvolik freymlarning o‘zaro uyg‘unligi orqali voqelanishi hamda mazkur freymlar paremiologik birliklarning mazmuniy yaxlitligi, obrazliligi va pragmatik ta’sirchanligini ta’minlovchi asosiy kognitiv mexanizm ekanligi asoslangan;

maqollarni freym va ssenariy modeli asosida talqin qilish paremiologik birliklarda statik bilim va dinamik voqelikning o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishini izohlash imkonini berishi hamda freym bilimlar tizimini, ssenariy esa mazkur bilimlarning kommunikativ voqelanish ketma-ketligini ifodalovchi o‘zaro bog‘liq kognitiv strukturalar ekanligi dalillangan;

o‘zbek va rus maqollarida namoyon bo‘ladigan personal, zoomorf, biomorf, fitomorf, oziq-ovqat, rang-tus va miqdoriy madaniy kodlar xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlar tizimi va milliy tafakkurini verbal shaklda modellashtiruvchi lingvomadaniy vositalar ekani hamda ular paremiologik birliklarning milliy o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligi ochib berilgan;

o‘zbek va rus tillaridagi paremiologik birliklarning semantik, konseptual va madaniy qatlamlarini kompleks tavsiflash modeli ishlab chiqilib, mazkur model qardosh bo‘lmagan tillarning paremiologik fondini kontrastiv tadqiq etish hamda lingvomadaniy tavsiflashning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

---

[20] Ўзбек халқ мақоллари. I том. – Тошкент: Фан, 1987; Ўзбек халқ мақоллари. II том. – Тошкент: Фан, 1988;.Шомақсудов Ш,.Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент, Ўзбек совет энциклопедияси бош таҳририяти. 1990.

[21] Аникин В.П. Русские пословицы и поговорки. – М.: Наука, 1988; Даль В.И. Пословицы русского народа. – М.: Русский яз. Медиа, 2007.

o‘zbek va rus tillarida maqollarning lingvokognitiv va lingvomadaniy hamda semantikasi va strukturasi bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlari va o‘ziga xos xususiyatlarining tahlili ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etishi “Tilshunoslik”, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Leksikologiya”, “Uslubiyat”, “Qiyosiy tipologiya”, “Tarjimashunoslik nazariyasi” kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarning mukammallashuviga yordam berishi asoslangan;

ikkilamchi nominatsiya tushuncha, nom va realiyalarning birlashishidan shakllanib, bu jarayonda inson faktorining muhimligi antropotsentrik yo‘nalishdagi tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi dalillangan;

maqollarning freym va ssenariy sifatida freym strukturasi, freym elementi bo‘lgan slotlar va sahna, freym realizatsiyasida madaniy va empirik shartlangan variantlari tahlili amalga oshirilgan;

o‘zbek va rus tillarida olam manzarasining ayrim fragmentlarini maqollar orqali konseptuallashtirish muammolarini o‘rganishda ushbu tillar konseptosferasini tashkil qiluvchi asosiy tushunchalarning tahlili lingvomadaniy tadqiqotlarda foydalanilishda ishonchli manba bo‘lib xizmat qilishi dalillangan;

o‘zga tilli guruhlarda rus tilini o‘rgatishda maqol va matallarni lingvokognitiv, lingvomadaniy va lingvopoetik, semantikasi va strukturasi bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlari va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga yordam berishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarni tavsiflash, tasniflash, adabiy-tarixiy va kompleks tahlil kabi usullar vositasida asoslanganligi, OAK tasarrufidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, taklif va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ishda o‘zbek va rus tillaridagi maqollar lingvistik metodlar tatbiqida lingvokognitiv va lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilingan va maqollarga yangicha yondashuv natijasida ushbu birliklarning komponent tarkibi aniqlangan, o‘zbek va rus konseptosferasini tashkil qiluvchi asosiy tushunchalarni tahlil qilish tasniflashning muhim bir bosqichi ekanligi asoslangan, shuningdek, maqollarni freym va ssenariy sifatida o‘rganish til birliklarining semantikasini aniqlash, ularni lingvistik tadqiq etish nazariyasini yanada boyitishga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy ishda erishilgan natijalardan “Frazeologiya”, “Terminologiya”, “Lingvomadaniyat”, “Qiyosiy tipologiya”, “Tarjima nazariyasi” kabi fanlardan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, ushbu fanlardan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar olib borishda, magistratura bosqichida “Lingvistik tadqiqot metodlari”, “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari”, “Frazeologiyaning dolzarb masalalari” kabi yo‘nalishlarda maxsus kurslarni tashkil etishda lingvistik manba sifatida foydalanish mumkin.

Ilmiy ishimizda qo‘llangan til materiallari va ularning tahlili leksikologiya, umumiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika fanlarini o‘rganishda, filologiya fakultetlari talabalariga ma’ruza o‘qishda, o‘quv qo‘llanmalar, lug‘atlar va darsliklar tuzishda ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek va rus tillarida paremiya, maqollarning tadqiqi bo‘yicha erishilgan xulosalar asosida:

maqollarni freym va ssenariy modeli asosida talqin qilish paremiologik birliklarda statik bilim va dinamik voqelikning o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishini izohlash imkonini berishi hamda freym bilimlar tizimini, ssenariy esa mazkur bilimlarning kommunikativ voqelanish ketma-ketligini ifodalovchi o‘zaro bog‘liq kognitiv strukturalar ekanligi to‘g‘risidagi mulohazalardan ФА-Ф1-Г003 raqamli “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti 2024-yil 23-avgustdagi 346/1-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida funksional so‘z yasalishi hodisalarini lingvokognitiv yondashuv asosida izohlashning nazariy-metodologik imkoniyatlari kengayib, til birliklarining semantik va konseptual xususiyatlarini kompleks tadqiq etishning ilmiy asoslari mustahkamlangan;

o‘zbek va rus maqollarida namoyon bo‘ladigan personal, zoomorf, biomorf, fitomorf, oziq-ovqat, rang-tus va miqdoriy madaniy kodlar xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlar tizimi va milliy tafakkurini verbal shaklda modellashtiruvchi lingvomadaniy vositalar ekani hamda ular paremiologik birliklarning milliy o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligi haqidagi mulohazalaridan FA-A1-G007 raqamli amaliy loyihani amalga oshirishda qo‘llangan. Loyiha mavzusi: “Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida”. (Qoraqalpog‘iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 23-avgustdagi 345/1-son ma’lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq naql-maqollarining lingvomadaniy tavsifini yaratishda madaniy kodlar asosidagi tahlil metodikasini qo‘llash imkoniyatlari kengaytirilib, paremiologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash va tavsiflashning ilmiy-amaliy asoslari takomillashtirilgan;

o‘zbek va rus tillaridagi paremiologik birliklarning semantik, konseptual va madaniy qatlamlarini kompleks tavsiflash uchun ishlab chiqilgan modeli va uning amaliy ahamiyati haqidagi xulosalardan “O‘zbekiston” teleradiokanalida “Adabiy jarayon”, “Millat va ma’naviyat”, “So‘z sehri”, “Ta’lim va taraqqiyot” dasturlarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasining 2025-yil 26-martdagi 05-09-373-son ma’lumotnomasi). Natijada dasturlarning sermazmun bo‘lishiga va ularning ma’naviy-ma’rifiy mazmun bilan boyitilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida ilmiy ma’ruzalar ko‘rinishida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy

attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat, umumiy hajmi 143 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Maqollarni lingvokognitiv va lingvomadaniy tadqiq etishning nazariy asoslari”** nomli 1-bobida so‘zning nominativ funksiyasi, uning yangi tushunchalarni hosil qilishi va ular orasidagi munosabatlar tahlil qilingan. Voqelikdagi predmet va hodisalarni bilish bosqichlari, tilning narsa va hodisalarni nomlashdagi vazifalari, nominatsiya jarayoni, uning tiplari, ikkilamchi nominatsiya, laqab, frazeologizmlar, metaforizatsiya jarayoni, antonomaziya hodisasi kabi jarayonlar yoritilgan.

Bobning *“Ikkilamchi nominatsiya lingvistik tadqiqot obyekti sifatida”* nomli birinchi faslida insoniyatning eng katta yutuqlaridan biri ijtimoiy hodisa bo‘lgan tilning paydo bo‘lishi, tabiati, rivojlanish qonuniyatlari, kommunikativ faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Inson atrof-muhitni o‘rganish jarayonida predmet va hodisalarga duch keladi, ularni qiyoslaydi, farqli tomonlarini aniqlaydi va shunga mos ularni nomlaydi, yangi tushunchalarni hosil qiladi, ular orasidagi munosabatlarni tahlil qiladi. Ana shu nominativ funksiyani so‘z bajaradi, tushunchaning yashash shakli, uning ifodasi bo‘ladi.

Nominatsiya birlamchi va ikkilamchi turlarga bo‘linib, ikkilamchi turdagi nominatsiya to‘g‘ri va ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi. Jumladan, laqab, maqol, frazeologizm, parafrazlar ikkilamchi nominatsiya mahsulidir. Maqol, frazeologizm va parafrazalar o‘zaro yaqin xususiyatga ega birliklardir. Bu birliklar ham ikkilamchi nominatsiya mahsuli hisoblanadi. N.M.Mahmudov [22], V.V.Vinogradov[23] va boshqa tilshunoslarning fikrlarini o‘rganib, frazeologizm gap tarkibiga kirishi va nutqni boyitishini, maqol esa alohida gap shaklida bo‘lib, kommunikativ va didaktik vazifani bajarishini kuzatdik. Demak, frazeologizm tilning ekspressiv imkoniyatlarini namoyon qiluvchi birlik bo‘lsa, maqol xalq dunyoqarashini ifodalovchi kognitiv va madaniy fenomen hisoblanadi degan xulosaga keldik.

Maqolni parafraza bilan qiyoslash masalasi ham olimlar diqqat markazida bo‘lgan. Tadqiqotda rus tilshunosi A.A.Reformatskiy[24], o‘zbek tilshunoslaridan I.Qo‘chqortoyev[25] va B.Yo‘ldoshev[26], I.E.Umirov[27] va boshqalarning parafraza haqidagi qarashlarini o‘rgandik va parafraza ma’noni boyitish va ta’sirni

[22] Маҳмудов Н.М. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2012. – Б.42.

[23] Виноградов В.В. Основные типы фразеологических единиц русского языка. – М.: Наука, 1977. – С.145.

[24] Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: Аспект Пресс, 1996. – С.96.

[25] Қўчқортоев И.Ўзбек стилистикаси масалалари. – Тошкент: Фан,1983. – Б.112.

[26] Йўлдошев Б. Бадиий нутк стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи. 1999. – Б.87.

[27] Умиров И.Э. Ўзбек тили парафразалари: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б.18.

kuchaytirishga xizmat qiladi, maqol esa umumiy xulosani ifodalaydi degan xulosaga keldik. Bu xususiyatlar maqolni til tizimida alohida paremiologik va kognitiv birlik sifatida o‘rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli *“Maqollarda metaforizatsiya jarayonining kognitiv asoslari”* deb nomlangan.

Xalq maqollarida ham metaforizatsiya hodisasini kuzatish mumkin. Ko‘pincha, maqollarda metaforizatsiya hodisasi axloqiy qadriyatlar, kishilar orasidagi munosabatlarni, hayotiy tajribani, hayvonot va tabiat olami, mehnat faoliyati yoki kundalik buyumlar orqali ifodalashda namoyon bo‘ladi. Metaforizatsiya jarayoni turli obrazlarni yaratish bilan amalga oshiriladi. Maqollarda metaforizatsiya hodisasi turli ko‘rinishda namoyon bo‘lib, o‘zga kishi obrazi yaratilishini shartli ravishda zoomorf, predmetli, mifologik va antropomorf metaforizatsiya turlariga bo‘lib o‘rganish mumkin.

1. Hayvon obrazi *(zoomorf metaforizatsiya).* Maqolda zoomorf metaforizatsiya jarayonida insonga xos fe’l-atvor hayvon obrazi orqali ifodalanadi. Shu o‘rinda biz o‘zbekcha *Bo‘rining og‘zi yesa ham qon, yemasa ham – qon; Fil tushida Hindistonni ko‘radi* hamda ruscha *Сколько волка не корми, всё в лес глядит; Осла в золото одень – ослом останется* kabi maqollarda insonga xos fe’l-atvor hayvon obrazi orqali ifodalanishi bilan ma’no ko‘chishini kuzatdik. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zoomorf metaforizatsiya jarayonida maqollar hayvonot olami orqali insonlarning xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlarini ifodalab, xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

2. Narsa obrazi *(predmetli metaforizatsiya).* Ushbu jarayonda buyumlar (predmet) bilan assotsiativ bog‘liqlikka kirishgan insonlarni o‘sha narsa xususiyati bilan qayta nomlanadi. Masalan, Temirni *qizig‘da bos* (temir – bu imkoniyat, qulay fursat. Har qanday ishni o‘z vaqtida bajarish kerakligiga ishora). *Har gulning hidi bo‘lak* (Gul – inson ramzi. Har bir kishining o‘ziga xos xarakteri va qobiliyati bo‘lishini ifodasi). *Шила в мешке не утаишь* (o‘tkir buyum (bigiz) haqiqat metaforasi bo‘lib ifodalanadi va haqiqat har qanday vaziyatda ham bir kuni yuzaga chiqishiga ishora qilingan). *Новая метла метёт по новому* (uy-ro‘zg‘or asbobi (supurgi) yangi rahbarni yangicha ishlashini anglatadi). Demak, maqollarda predmetli metaforizatsiya jarayonida jonsiz predmetlarda antropomorf jihatlar namoyon bo‘lib, ular orqali abstrakt tushunchalar konkretlashadi va ularning semantik va kognitiv mazmuni verballashadi

3. Mifologik obraz *(mifologik metaforizatsiya).* Bunday metaforizatsiyada afsonaviy personajlar va g‘ayritabiiy kuchlarning sifatlari, harakatlari oddiy odamlarga yoki tabiat hodisalariga ko‘chiriladi. *Har kelganni Xizr bil, Har kechani qadr bil* (har bir insonni Xizrday hurmat qilish, har kunni qadriga yetish kerak). *Sinalmagan farishtadan, sinalgan shayton yaxshi* (Shayton – yomon bo‘lsa ham, xulqi ma’lum, Farishta – tashqi ko‘rinishidan ijobiy, lekin sinalmagan inson obrazining metaforik ifodasi). *В тихом омуте черти водятся* (тихий омут – tinch ko‘rinadigan vaziyat metaforasi, чёрт – mifologik obrazi inson xulqining yashirin tomonlari obrazida metaforlashadi). *Летел как ангел, упал как чёрт* (ангел – tozalik, obro‘ timsoli, чёрт – osmondan tubsizlikka tashlangan va

shaytonga aylangan farishta – Lyutsiferga ishora, sharmandalik timsoli). Bu guruhdagi maqollar afsonaviy obrazlarning g‘ayritabiiy sifatlari va harakatlari inson yoki tabiat hodisalarida metaforlashib, ular orasidagi kognitiv va badiiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

4. Abstrakt obraz *(antropomorf metaforizatsiya).* Konkret holatlar abstrakt tushunchalar bilan assotsiatsiyalarga kirishadi. Maqollardagi antropomorf metaforizatsiyani *Taqdir kulsa, ish yurishar* (kulish fe’li orqali taqdir insoniy xususiyatga ega); *Omad yuz o‘girsa, mehnat ham ojiz* (omadga ongli harakat xususiyati berilgan); *Порядок время бережёт* (*tejaydi* fe’li orqali tartib insoniy xususiyatga ega); *Судьба смеётся над ленивым* (taqdir inson sifatida jonlantiriladi) kabi maqollar misolida insonga xos bo‘lgan xususiyatlarni tabiat hodisasi, jonsiz predmet, mavhum tushunchalarga ko‘chishi natijasida maqollarda antropomorf metaforizatsiya jarayoni kuzatiladi. Bunday hodisa xalqning milliy tafakkuri va kognitiv ongining ifodalanishida muhim omil bo‘ladi.

Ushbu to‘rt turdagi metaforizatsiya orqali inson tajribasi, hayvonot va tabiat dunyosi, moddiy madaniyat hamda mifologik tasavvurlar yagona konseptual tizimga birlashtiriladi, natijada maqol matni semantik jihatdan zich, ixcham shaklda ma'no va mazmun uzatuvchisi bo‘ladi.

Ikkinchi bob **“Maqollarning lingvokognitiv asoslari (o‘zbek va rus xalq maqollari misolida)”** deb nomlangan. Bobning birinchi faslida *O‘zbek va rus maqollarida milliy xususiyatning ifodalanishi* haqida so‘z yuritiladi. Unda ikki til maqollarida milliy xususiyatning namoyon bo‘lishi, kognitiv lingvistikaning strukturasi bo‘lgan ssenariy va freym, maqollarning asosiy xususiyatlari, olamning konseptual va lisoniy manzarasi, maqollarda tayanch konseptlar tasnifi va tavsifi yoritilgan.

Biz maqollar talqinini D.Ushakov [28], S.I.Ojegov [29], V.N.Yarseva [30], V.D.Starichenok[31] lug‘atlarida o‘rganib chiqdik. O‘zbek tilshunosligida maqollar haqidagi qarashlarni O.S.Axmanova [32], M.Djusupov va N.B.Saparova [33] kabi olimlarning ishlari hamda O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi[34]da o‘rgandik.

Lingvokulturologiyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u madaniyatni antropotsentrik yondashuv orqali o‘rganishi hamda tilni milliy madaniy qadriyatlar tashuvchisi sifatida tushunishidir. Xalqning paremiologik fondi uning milliy tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi muhim lisoniy manba hisoblanadi. Maqollarda millatning o‘ziga xos milliy qiyofasi shakllanadi va bu qiyofa milliy realiyalarda o‘z aksini topadi. Milliy realiyalar deganda biz muayyan

---

[28] Толковый словарь русского языка / Под ред. Ушакова. – М.: Астрель; АСТ, 2009. – С.546

[29] Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. – М., 2008. – С.565.

[30] Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С 685.

[31] Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь. – Ростов-на-Дону:Феникс. 2008. – С.458-459.

[32] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2-ое, стереотип. – М.: Сов. Энциклопедия, 1969. – С.197.

[33] Джусупов М., Сапарова Н.Б. Пословица как вид паремиологических клише // ВЕСТНИК Каз. гос. университета им. Аль-Фараби. Филологическая серия, – Алма-Аты, 2000. – №7(41), – С.20-25.

[34] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик. Ж. 5: Конимех – Мирзиёев / Таҳрир ҳайъати: М.Аминов ва б. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б.340

bir xalqning madaniy, ijtimoiy va turmush tarziga taalluqli bo‘lgan, boshqa tilda ekvivalenti mavjud bo‘lmagan, tilda o‘z aksini topgan voqea, buyum, shaxs yoki atamani tushunamiz. Uning ma’nosi madaniy kontekstga bog‘liq bo‘lib, faqat ma’lum xalqqa xos bo‘ladi.

Masalan, *Otangni bog‘i-rog‘i bilan qolguncha, onangni pilta savati bilan qol* o‘zbek xalq maqoli bilan *Мать у корзины накормит, а отец у сусека заморит* rus xalq maqoli mazmunan yaqin. Ushbu maqollarda ota va ona obrazlarining ijtimoiy-madaniy bahosi ifodalanadi. Ularda oilaviy hayot tajribasi asosida shakllangan qadriyatlar tizimi va tafakkurga xos aksiologik qarashlar birlashgan. O‘zbek tilidagi *Otangni bog‘i-rog‘i bilan qolguncha, onangni pilta savati bilan qol* maqolida milliy realiyalar yaqqol namoyon bo‘ladi. *Bog‘-rog‘* o‘zbek madaniyatida boylik ramzi hisoblanadi. *Pilta* – charxda ip yigirish uchun paxta. Maqolda onaning arzimas, kambag‘alona vosita bilan ham farzand uchun tayanch bo‘lishi, ota esa boyligi bo‘lsa-da, unga onadek parvona bo‘lolmasligi namoyon bo‘ladi.

Rus xalq maqolida *корзина (savat) va сусек (don saqlanadigan ombor)* obrazlari markaziy o‘rinni egallaydi. *Корзина* – har kuni ishlatiladigan buyum bo‘lib, ona obrazi bilan bog‘lanadi. Bu yerda ona har qanday sharoitda ham farzandini boqishga, ta’minlashga qodir shaxs sifatida tasvirlanadi. *Сусек* esa zaxira saqlanadigan joy, boylik ramzi bo‘lib, ota obrazi bilan bog‘langan. Biroq maqolda ota boyligiga qaramay, farzandini ta’minlay olmasligi kinoya bilan ifodalanadi. Ushbu maqollardagi milliy realiyalar: o‘zbek maqolida – *bog‘-rog‘, pilta savati*; rus maqolida – *корзина, сусек.*

Shu asosda o‘zbek va rus maqollaridagi milliy realiyalar mehnatga munosabat, vatan va vatanparvarlik, do‘stlik va dushmanlik, tenglik va tengsizlik, bosh kiyim, taom hamda diniy-axloqiy tasavvur mavzulari kesimida chog‘ishtirildi. Chog‘ishtirish shuni ko‘rsatdiki, bir xil konseptual mazmun har ikki tilda o‘ziga xos moddiy-maishiy obraz orqali voqelanadi: o‘zbek maqollarida *bo‘zchi, belbog‘, salla, atala, ayron, mulla*, rus maqollarida esa *лапти, сапоги, шапка, колпак, блины, каша, поп* realiyalari tayanch obraz vazifasini bajaradi. Xulosa qilib aytganda, milliy realiyalar maqollarda ma’no va obraz yaratadi; turli sohalarda xalq tafakkurini aks ettiradi; ma’naviy va axloqiy tafakkurni avlodlarga yetkazadi. Milliy realiyalarda xalqning urf-odatlari va azaldan shakllanib kelgan turmush tarzi namoyon bo‘ladi va har bir maqolda o‘sha xalqning milliy xususiyatlari ifodalanadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli *“O‘zbek va rus xalq maqollarida tayanch konseptlar”* deb nomlangan. Rus tilshunosligida *konsept* tushunchasi XX asrning birinchi choragida tilshunos olim S.Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Olimning fikricha, turli millat vakillari konseptlar vositasida muloqot qiladilar, shuning uchun ham tushunchalarni yaratish va idrok etish ikki tomonlama muloqot jarayonidir[35]. Dissertatsiyada lingvokulturologiyada konsept

[35] Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словенности к структуре текста. Аналогия. – М.: Academia, 1997. – С. 267-280.

haqida N.Mahmudov [36], D.Xudoyberganova [37], Sh.Usmonova [38] larning fikrlari o‘rganildi.

Konseptga berilgan juda ko‘p turli xil ta’riflar mavjud, lekin asosiysi, konsept madaniyat olamini aks ettiradi, ushbu jarayon natijasi esa millat ongida milliy-mental konseptlar shaklida saqlanadi. Demak, konseptlar madaniyatni tashkil etuvchilardir. G.V.Tokarevning fikricha, konsept ikki xil – universal hamda madaniy konsept bo‘lishi mumkin[39]:

Umumiylik belgisiga ega konseptlar barcha xalqlar uchun bir xil tushunchani ifodalaydi, ya’ni universal bo‘ladi. Xususiy belgiga ega bo‘lgan konseptlar esa ma’lum bir jamoaga tegishli bo‘lgan madaniy konseptlardir. Lingvokulturologiya uchun aynan milliy mentalitetning o‘ziga xosligini aks ettiruvchi milliy-madaniy konseptlar tahlili katta ahamiyatga ega.

Bilamizki, maqol va matallar janr matni sifatida folklorshunoslikda keng tadqiq etilgan. Tilshunoslikda ularni nutq janri sifatida o‘rganish endi boshlanmoqda.

Maqollarda tayanch konseptlarni o‘rganilgan materialga ko‘ra ikkita tayanch – *inson va tabiat* konseptiga bo‘lib o‘rganamiz. Albatta, bu konseptlar bir-birlari bilan bevosita bog‘lanadi. Lekin umumiy tushunchaga ko‘ra ikki markazga ajraladi. Biz o‘rgangan maqollar ana shu ikki tayanch konseptga bog‘lanadi.

I.*Inson* tayanch konsepti to‘rt guruhda tahlil qilindi: individual shaxs guruhida iqtisodiy, jismoniy va ruhiy holatni ifodalovchi maqollar; ijtimoiy guruh a’zosi guruhida oila a’zolari va o‘zaro munosabatlarni ifodalovchi maqollar; mehnat faoliyati guruhida mehnatkashlik va yalqovlik zidligini ifodalovchi maqollar; taqdir guruhida esa baxt, qismat va hayot sinovlarini ifodalovchi maqollar jamlandi. Tahlil natijasi shuni ko‘rsatadiki, ushbu konseptli maqollarda insonga xos bo‘lgan axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, insonning fe’l-atvori, emotsional-baholovchi kategoriyasi namoyon bo‘ladi

II.Tabiat tayanch konseptiga taalluqli maqollar ob-havo, o‘simlik dunyosi va hayvonot dunyosi guruhlari bo‘yicha tahlil qilindi. Natijada quyidagi xulosaga kelindi: tabiat konsepti orqali inson tajribasi namoyon bo‘ladi. Ya’ni, insonning hayotidagi voqelik tabiat hodisalarida, o‘simlik va hayvonlar obrazida, fasllarda ramziy va metaforik tarzda aks etadi.

Inson va tabiat konsepti barcha xalqlar uchun universal konsept deb hisoblansa-da, maqollar orasida aynan muayyan xalqqa tegishli tushunchalar, madaniy konseptlar mavjudligini guvohi bo‘ldik. Masalan, o‘zbek tilidagi “Ayamajuz – olti kun, Olti oy qishdan qattiq” va rus tilidagi “Март весну купил, а Зиму-Марену в долг продал” maqollarida Ayamajuz va Зима-Марена shu xalqlar folklorida mifologik obraz hisoblanadi va shu xalqqa tegishli madaniy konsept sifatida namoyon bo‘ladi.

---

[36] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – №5. – Б.9.

[37] Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. –Б.25.

[38] Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B 45.

[39] Токарев Г.В. Лингвокультурология. – Тула: Издательство ТГПУ им. Л. Н. Толстого, 2009. – С.15.

Xulosa qilib aytganda, inson va tabiat konseptlarining maqollarda aks etishi, milliylik va universallikni uyg‘unlikda ko‘rsatadi. Maqollarda mazmunan umumiylik saqlangan holda, shakl va ifoda darajasi har bir xalqning o‘z madaniyati, dunyoqarashi, mentalitetini aks ettiradi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli *“Maqol freym va ssenariy sifatida (o‘zbek va rus maqollari misolida)”* deb nomlangan bo‘lib, unda kognitiv struktura kodlashtirish, saqlash, axborotlarni uzatish va transformatsiyalash vositasi yordamida olam haqidagi bilimlarni jamlaydi degan fikr o‘rganiladi, kognitiv strukturaning tipik turi ssenariy va freym haqida so‘z yuritiladi. XX asrning 80-yillarida shakllangan kognitiv lingvistika tilni kodlashtirish, saqlash va axborot yetkazish vositasi sifatida o‘rganadi.

Freym (ingl. *frame*) – stereotip vaziyatda inson ongida saqlangan tasavvurlarning strukturasi, tuzilishi[40] bo‘lsa, *ssenariy* – bu dinamik konsept, ma’lum vaqtda bir qancha epizodlarning ketma-ketligini bildiradi. Ssenariy freymning harakatdagi ko‘rinishi bo‘lib, maqolni ham hayotiy model bo‘lganligi tufayli ssenariy sifatida o‘rganish mumkin.

Maqollar ham freymdir. Chunki ularning mazmuni inson ongida muayyan ssenariylar, tajribalar, hayotiy holatlar va ularning odatiy yechimlari bilan bog‘langan holda shakllanadi. Freym ikki xil struktura sifatida namoyon bo‘ladi – kognitiv grammatikada va kognitiv semantikada. Kognitiv grammatika nuqtayi nazaridan qaralganda, har bir maqol o‘zining semantik-sintaktik strukturasi, qat’iy modeli va konseptual asosiga ega bo‘lgan lisoniy birlikdir. Kognitiv semantika esa maqollar mazmunining ichki konseptual tuzilishini aniqlashga imkon beradi. Unda ssenariy (hayotiy vaziyat modeli), uning ishtirokchilari, voqealar ketma-ketligi va axloqiy xulosasi kabi komponentlar namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, maqollarni ikki yo‘nalishda – kognitiv grammatik va kognitiv semantik tomonlama tahlil qilish nazariy jihatdan to‘g‘ri va samaralidir.

Maqollarni freym sifatida tahlil qilganda quyidagi turlarga ajratib o‘rganish mumkin: 1. Zidlik freymi. 2. Metaforik freym. 3. Simvolik (majoziy) freym.

1. Zidlik freymi ssenariyasida voqealar yoki obyektlar bir-biriga qarshi, zid xususiyatlarga ega bo‘lgan holatlar asosida shakllangan bo‘ladi. Maqollarda zidlik freymi ko‘p variantlarga ega, ya’ni har bir maqolda zidlik munosabati aniq yoki pragmatik ma’no orqali ifodalanadi. Masalan, *Yaxshi so‘z iydirar, yomon so‘z bezdirar: Пчела жалит жалом, а человек – словом* maqollarida zidlik freymi namoyon bo‘ladi. Ushbu guruhga kiruvchi maqollar freym sifatida tahlil qilinganda, ularning zamirida barqaror zid konseptlar juftligi yotishi aniqlandi. Tahlillardan ko‘rinadiki, maqollarda qarama-qarshi obrazlar orqali salbiy va ijobiy harakatlar farqlanib, axloq me’yorlari aniqlanadi. Shunda, maqollar faqat til birligi sifatida emas, axloqiy-me’yoriy kod tashuvchi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot ishida zidlik, metaforik va simvolik freymli maqollar tahlilga tortildi. Ushbu guruhga kiruvchi birliklarni kognitiv grammatik va kognitiv semantik jihatdan tahlil qilinishi ularni nafaqat nutqiy va stilistik jihatdan, balki til birligi

[40] Демьянков В.З. Фреймовая семантика // Краткий словарь когнитивных терминов / под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: Филологический факультет МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. – С.189-191.

sifatida ham tahlil qilish mumkinligini isbotladi. Demak, maqollar freym sifatida inson ongida saqlangan tasavvurlar strukturasini bildiradi. Har bir maqol ssenariysi qatnashchilar va ma’lum sharoitda ular orasidagi munosabatdan iborat bo‘ladi.

Xulosa shuki, maqollar tilning kognitiv tizimida alohida freym sifatida namoyon bo‘lib, o‘zida muayyan ssenariy qismlarini mujassamlashtiradi. Ular zidlik freymi, metaforik freym, simvolik freymlarga ajratilib, kognitiv grammatik va kognitiv semantik jihatdan tahlil qilinishi maqolni til birligi sifatida o‘rganish mumkinligi isbotlaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Maqollarning lingvokulturologik aspekti”** deb nomlangan. Bobning birinchi *“Maqollarda lakunalar va ularning lingvokulturologik xususiyatlari”* faslida maqollarning madaniy yuk tashish xususiyatlari yoritilgan. Ushbu faslda tilshunos D.Xudoyberganova[41], professor N.Mahmudov[42]ning olamning lisoniy manzarasi haqidagi fikrlari o‘rganilgan.

Lingvokognitologiya til tizimini umumiy kognitiv struktura sifatida o‘rganadi. Uning o‘rganish obyektlaridan biri matn, jumladan, maqol hamdir. Lingvokulturologik yondashuvlarga ko‘ra, matn – muayyan xalqning madaniy qadriyatlarini, milliy-mental fikrlash tarzini namoyon etuvchi lingvomadaniy birlikdir. Shu jumladan, maqol ham lingvomadaniy birlik va lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti hisoblanadi.

Ishimizda maqolning sifatlari va belgilariga M.Djusupov [43] va b., Z.K.Tarlanov[44], V.P.Anikin[45], H.Berdiyorov[46] va b. tomonidan berilgan ta’riflarni o‘rganib chiqdik.

Lingvistik tadqiqotlarda “maqol” tushunchasi bilan birga “parema” tushunchasi keng qo‘llanadi. Olimlarning fikricha, paremiologiya adabiyotshunoslarning ham, tilshunoslarlarning ham tadqiqot maydonidir. Paremiologik birlik hisoblangan maqollar tizimi xalqning mentaliteti, milliy madaniyati, kognitiv tasavvurlarini aks ettiradi. O‘zbek va rus tillaridagi maqollarni qiyosiy tahlil qilishda lakuna hodisasi namoyon bo‘ladi. “Lakuna – muloqot jarayonida muayyan madaniyatning boshqa madaniyat vakili tomonidan to‘liq yoki qisman anglashilmaydigan o‘ziga xos milliy unsuri”[47]

Maqollarda lakuna hodisasi ma’lum bir xalq madaniyatida mavjud bo‘lgan, lekin boshqa xalq madaniyatida uchramaydigan konseptlar, boshqa tilda muqobilsiz va to‘liq tarjimasiz holda namoyon bo‘lgan birliklar sifatida ifodalanadi. Lakunar holatlar, asosan, ikki xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, turmush tarzi va mifologik tasavvurlari keskin farq qiladigan sohalarda, jumladan,

---

[41] Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б.33.

[42] Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – B.143

[43] Джусупов М., Алибекова К., Мажитаева Ш. Специальная лексика и пословицы (лингвоконтрастивные и методические аспекты). – Ташкент: MERIYUS, 2013. – С.44.

[44] Тарланов З.К. Русские пословицы: синтаксис и поэтика. Петрозаводск: Изд-во Петрозаводск. ун-та, 1999. – С.35.

[45] Аникин В.П. Русские пословицы и поговорки. – М., 1988. – С.6

[46] Бердиёров Ҳ., Расулов Р., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. I қисм. – Самарқанд, 1976. – Б.7.

[47] Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. –Б.25.

tabiiy muhit, milliy maishiy madaniyat va diniy-mifologik kod doirasida koʻproq kuzatiladi. Ushbu qarashlar oʻzbek va rus maqollarini qiyosiy oʻrganishda muhim asos boʻladi. Shu sababli mazkur tadqiqotda lakunalar quyidagi tasnif asosida tahlil qilinadi: 1) toʻliq lakuna; 2) qisman lakuna; 3) madaniy-obrazli lakuna.

Oʻzbek va rus tillaridagi maqollarni chogʻishtirish jarayonida madaniy lakunalarning mavjudligi har bir xalqning oʻziga xos tarixiy-ijtimoiy tajribasidan, ayro tasavvur mavjudligidan dalolat beradi. Rus tilidagi “В чужой монастырь со своим уставом не ходят” maqolining semantik strukturasida “begona jamoada yoki oʻzga yurtda oʻsha yerning qonun-qoidalariga soʻzsiz boʻysunish lozim” degan qat’iy ijtimoiy qoida namoyon boʻladi. Monastirlar (milliy realiya) rus madaniyatida nafaqat ibodat maskani, balki oʻzining qat’iy nizomi – “ustav”iga ega boʻlgan alohida ma’muriy-huquqiy birlik hisoblangan. Har bir monax yoki jamoaga yangi kelgan a’zo bu ichki tartibga amal qilishi shart boʻlgan. Bugungi kunda ushbu maqol mazmuni kengayib, oʻzga davlatlarning urf-odatlari va turmush tarzini hurmat qilishga chorlovchi hammabop axloqiy me’yorga aylangan. Biroq lingvistik jihatdan “монастырь” leksemasi xristianlik olamiga mansub, oʻzbek tilidagi islom sivilizatsiyasiga xos “xonaqoh” yoki “madrasa” tushunchalari bilan esa madaniy-tarixiy jihatdan toʻliq mos kelmaydi. Shu bois, ushbu maqolni oʻzbek lingvomadaniyatiga nisbatan madaniy-obrazli lakuna sifatida baholash, bizningcha, asoslidir.

Navbatdagi muhim jihat, oʻzbek xalq maqollaridagi oilaviy-maishiy munosabatlarni ifodalovchi birliklar tahlilida koʻzga tashlanadi. Masalan, “Kundoshlik – koʻngil gʻashlik” kabi maqollar zamirida oʻzbek mentalitetiga xos boʻlgan murakkab ijtimoiy fenomen yotadi. Oʻzbek tilida kundosh – bir erkakning ikki yoki undan ortiq xotinining oʻzaro qarindoshchilik munosabati boʻlib, bu tushuncha qarindoshchilikdan koʻra raqobat, rashk tufayli dushmanlik, zid munosabatlarni anglatadi. Dushmanlik kundosh leksemasining doimiy konnotatsiyasiga aylangan. Rus tilida esa bu holatni ifodalash uchun *любовница* (jazman) yoki *сожительница* (soʻzma-soʻz “birga yashovchi”) kabi soʻzlar ishlatilsa-da, ular “kundosh” soʻzidagi kabi aniq qarindoshlik va maishiy maqomni toʻliq ifodalay olmaydi. Rus madaniyatida mazkur konseptning maqbul leksik ekvivalenti va unga asoslangan paremiologik tizim mavjud emasligi sababli, “kundosh” komponenti ishtirok etgan maqollarni rus tiliga nisbatan toʻliq lakuna deb hisoblash mumkin.

Qisman lakuna ikki tildagi maqollarning konseptual mazmuni mos kelib, obrazlar tizimi qisman farq qiladigan holatlarda kuzatiladi. Masalan, oʻzbekcha *Har gulning oʻz isi bor, har elning oʻz tusi bor* maqolida individuallik gul va el obrazlari orqali, ruscha *Всяк кулик своё болото хвалит* maqolida esa qush va botqoq obrazlari orqali ifodalanadi: konseptual mazmun bir xil, obrazli kod esa boshqacha.

Demak, lakunalarning uch turi ham real til materialida tasdiqlanadi: toʻliq lakunalarda bir tildagi maqolning ikkinchi tilda muqobili umuman topilmaydi; madaniy-obrazli lakunalarda konseptual mazmun mos kelib, obrazlar tizimi milliy

realiyalar hisobiga farqlanadi; qisman lakunalarda esa moslik ifoda koʻlami darajasida chegaralanadi.

Oʻzbek va rus xalqlari mentalitetida madaniy, semantik, leksik jihatdan mos, bir-birini takrorlovchi maqollar guruhi mavjud. Bu esa ikki xalqning voqelikni anglashda umumiylik borligini koʻrsatadi. Masalan, *yetti oʻlchab bir kes – семь раз отмерь, один раз отрежь; Nima eksang, shuni oʻrasan – что посеешь, то и пожнёшь* va hokazo. Ushbu maqollar toʻliq semantik va strukturaviy ekvivalentlikka ega boʻlib, absolut ekvivalentlardir. Demak, chogʻishtirish ikki qutbli manzarani beradi: bir tomonda milliy tajribaning takrorlanmasligidan kelib chiqadigan lakunalar, ikkinchi tomonda umuminsoniy tajribaning umumiyligidan kelib chiqadigan absolut ekvivalentlar turadi.

Xulosa qilish mumkinki, tillararo chogʻishtirishda koʻrinadigan semantik lakunalar maqollar misolida toʻliq, qisman va madaniy-obrazli koʻrinishlarda namoyon boʻladi. Bu farqlar xalqlarning milliy ruhiyatini aks ettirsa, maqollardagi toʻliq mutanosiblik ularning madaniy va tarixiy rivojlanish yoʻlidagi oʻxshashliklarni tasdiqlaydi.

Uchinchi bobning *"Madaniy kod va uning oʻzbek va rus tillaridagi maqollarda aks etishi"* nomli ikkinchi faslida olamning lisoniy manzarasida madaniy kodlar alohida oʻrin egallashi va uning muhim tarkibiy qismi ekanligi ta'kidlanadi. Madaniy kodlar millatning madaniy me'yorlari, mezon va qadriyatlarining yigʻindisi boʻlib, belgilik tabiatiga ega ijtimoiy organizm hisoblanadi. Olimlarning fikrlariga koʻra, dunyoni madaniy kod asosida modellashtirish ikki tizimdan iborat boʻlib, birinchi tizim verbal tillar tizimini tashkil qiladi. Mifologiya, san'at va boshqa hamma madaniy strukturalar esa ikkilamchi tizimni tashkil qiladi. Demak, inson va voqelik orasidagi munosabatini bogʻlashda kod – tushuntiruvchi, izohlovchi; madaniy kod – turtki beruvchi, eslatuvchi xususiyatga ega. Koʻrinadiki, madaniy kod matn orqali turtki beruvchi, eslatuvchi olam bilimi korpusini tashkil qiladi. Madaniy kodlar oʻz xususiyatiga koʻra dinamikdir, ular qotib qolgan emas, ma'lum davr oʻtishi bilan ular transformatsiyaga uchraydi. Bu hodisada shakl oʻzgaradi, ammo madaniy kod oʻzgarmaydi. Ya'ni ularni bogʻlovchi madaniy mazmun bir boʻladi.

Oʻzbek va rus maqollari misolida madaniy kodlarni koʻrib chiqqanda, ular yordamida ushbu ikki xalq madaniyatining ifodasini, ya'ni maqollar orqali olamni tasavvur etish mumkinligini kuzatamiz. Tadqiqotda madaniy kodlar personal, biomorf, oziq-ovqat, rang-tus va miqdoriy guruhlarga ajratildi. Biomorf kod jonli tabiat bilan bogʻliq umumiy kod boʻlgani sababli, u ikki mustaqil koʻrinishda – hayvonot olamiga oid zoomorf va oʻsimliklar olamiga oid fitomorf kod sifatida alohida-alohida tahlil qilindi. Shu bois quyida madaniy kodlar oltita tematik guruh doirasida, biomorf kod esa uning ikki voqelanishi orqali koʻrib chiqiladi:

1. Personal guruh. Insonlarga xos boʻlgan xususiyatlar, harakatlar, odob-axloq haqidagi maqollar kiradi. Bu kabi maqollarning oʻziga xos denotati mavjud boʻlib, madaniy kodlari umumlashgan boʻlishi mumkin. Ushbu guruhga doir maqollarni tahlil qilganimizda, oʻzbek tilidagi madaniy kodi *kundoshlik* boʻlgan maqollarga rus tilidagi ekvivalentini topmadik.

2. Zoomorf guruhi (biomorf kodning hayvonot voqelanishi). Bu maqollarda hayvonlardagi asosiy xarakter xususiyatlar orqali insonlarga nisbat beriladi.

3. Fitomorf guruh (biomorf kodning o‘simlik voqelanishi). Fitomorf kodning o‘zbek maqollaridagi tayanch obrazlari gul, bug‘doy, daraxt kabi realiyalar bo‘lib, ular orqali individuallik, har ishning o‘z vaqti borligi kabi mazmunlar ifodalanadi.

4. Oziq-ovqat guruhi. Eng muhim madaniy kodlardan biri madaniyat va ovqatlanishni bog‘lovchi taomlar guruhidir. Shu sababdan oziq-ovqat bilan bog‘liq maqollar ham ko‘p miqdorni hosil qiladi.

5. Rang-tus guruhi. Rang-tus guruhiga kiruvchi maqollarda ham axborotni o‘qish imkonini beruvchi madaniy kod ajratiladi. Masalan, xitoylarda qizil rang omad va xursandchilik ramzi hisoblanadi. Ammo, masalan, rus madaniyati stereotiplariga ko‘ra ahmoqning yoqtirgan rangi qizildir. Demak, har bir millat madaniyatida ranglar o‘ziga xoslikni bildiradi. O‘zbek tilidagi rang-tus bilan bog‘liq maqollarni ko‘rib chiqqanimizda, ko‘proq ikki xil rang – oq va qora ranglar ishlatilganiga guvoh bo‘ldik.

6. Miqdor guruhi. Inson hayotida hamma narsa o‘lchovli bo‘ladi. Shu sababli maqollarda ham miqdor ma’nosiga bog‘liq madaniy kodlar mavjud. Asosiy zidlik oz va ko‘p o‘rtasida bo‘ladi. Ular ikki xil ifodalanadi, raqam bilan va miqdor bildiruvchi so‘zlar orqali.

Insonning qaysi ijtimoiy davrda yashaganligiga qarab paydo bo‘lgan maqollar ham xalqning madaniy kodini ochib beradi. Ishimizda o‘zbek tilidagi *Xatga tushding, o‘tga tushding* maqolini tahlilga tortdik va maqolda xonlar, boylar, Oqposhshoning oddiy xalqqa nisbatan adolatsiz siyosatini aks ettiruvchi davr bilan bog‘liq madaniy kodlarni ko‘rdik. Rus tilidagi *Язык до Киева доведёт* maqolini tahlil qildik. Maqolni 3 xil varianti bo‘lib, “Язык до Киева доведёт”, “Barcha yo‘llar Rimga olib boradi”, “So‘rab-so‘rab Makkani topganlar” variantlari bo‘lganini kuzatish mumkin. 1930-38 yillardagi Stalin qatag‘oni tarixiy davridagi transformatsiyaga uchragan varianti – *Язык до Киева доведёт, а длинный – до Магадана* maqolini tahlil qildik va maqollarda ma’lum bir davrning madaniy kodi ham aks etadi degan xulosaga keldik.

Demak, madaniy kod moddiy va ma’naviy dunyo belgilar sistemasiga kiradi. Umuman, olamning lisoniy manzarasi olam haqidagi umumiy hamda milliy shartlangan bilimlar yig‘indisidir. Shunday qilib, maqollarni obyektivlikning subyektiv, aniqrog‘i, milliy talqini deyish mumkin.

Uchinchi bobning uchinchi fasli *“O‘zbek va rus tillaridagi maqollarning konseptual mazmuni”*ga bag‘ishlangan. Ma’lumki, til – inson ongiga olib boruvchi vositalaridan biri. Inson noverbal fikrlaydi, u universal predmet kodlari yordamida amalga oshadi, ya’ni insonlar konsept orqali tasavvur qiladi. Ko‘rinadiki, til orqali anglash va tushunchaning konseptual mazmunini tushunish jarayoni bajariladi.

Milliy konseptosfera umuminsoniy universal qimmatga ega bo‘lgan konseptlardan tashkil topadi. Ana shu umuminsoniy konseptlar xalqlaro kommunikatsiyani ta’minlaydi. Dunyo manzarasini qanday qabul qilish ma’lum xalqning milliy-madaniy xususiyatlariga bog‘liq. Har bir so‘z, har bir ibora faqat bir xalqqa xos bo‘lgan milliy haqiqatni ochadi. Maqollarda har bir xalqning milliy

xususiyatlari aks etishi bilan birga xalqlarni birlashtiruvchi, yaqinlashtiruvchi umumiylik ham mavjud bo‘ladi. Bunday umumiylik rus va o‘zbek xalqlari madaniyatida ham bordir va ular xalqning nutqiy boyligi bo‘lgan maqollarda ham aks etgan. Biz jadvalda o‘zbek va rus tilidagi maqollarda konseptual belgi va umumiylik belgilarini ko‘rsatdik.

Ishimizda o‘zbek va rus tillaridagi maqollarda “mehmondo‘stlik” konsepti tahlilga tortildi. O‘zbek va rus maqollarining chog‘ishtirma tahlili “mehmondo‘stlik”, “гостеприимство” konseptini ushbu xalqlar mentalitetida aktuallashuvini o‘rganishga yordam berdi. Ushbu konsepsiyaning paremiyalarda aks etishida umumiylik paydo bo‘ldi. Ikkala xalqni mentalitetida ham “mehmondo‘st bo‘lish yaxshi” postulati namoyon bo‘ldi. O‘zbek va rus maqollarida xulq-atvor o‘xshashligi, ya’ni chaqirilgan va chaqirilmagan, kutilgan va kutilmagan, uzoq vaqt mehmon bo‘lib qolgan kishilarga nisbatan munosabatlar qayd etilgan. “Mehmondo‘stlik” konsepti aks etgan maqollar soniga qaraganda, ushbu konsept har ikkala tilda ham dolzarbligini yo‘qotmaganini guvohi bo‘ldik. Bunday maqollar o‘zbek va rus milliy ongida mehmonga nafaqat eng yaxshi narsani, balki oxirgi ushoqni ham berishga tayyorligini shakllanganini ko‘ramiz.

Maqollarni o‘rganish va tahlil qilish jarayonida rus konseptosferasiga oid, ammo dunyoning boshqa hech bir xalqiga milliy xususiyat sifatida noma’lum bo‘lgan “авось”, “небось”, “как-нибудь” so‘zlarini uchratdik. Masalan, *Русский человек любит авось, небось и как-нибудь, Авось да небось – возьми да брось, Авось да небось – родные братья, оба лежни*. Bu maqollar salbiy ma’noga ega bo‘lib, ishga mas’uliyatsizlik bilan yondashish, tavakkalchilik ma’nosida ishlatiladi. «Авось» – rus milliy ongiga xos bo‘lgan kognitiv-madaniy konsept bo‘lib, rus milliy xarakterida “Harakat qilaman, lekin natija omadga bog‘liq; balki...” ma’nolarni anglatadi. O‘zbek tilida “Авось” ning to‘liq analogi yo‘q.

O‘zbek xalq maqollarida esa “halol va harom” konsepti qatnashgan maqollar guruhi mavjud. Masalan,*Eshakning mehnati halol, go‘shti harom; Halol pishib chiqar, harom teshib chiqar; Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich; Harom ish tez qaritar; Haromdan ming tanga, haloldan bir tanga* kabi maqollarda halol konsepti diniy va axloqiy jihatdan qonuniy, pok ma’nosida keladi. Rus tilida «честный, разрешённый» tushunchalari bor, lekin diniy, ma’naviy qirrasi yo‘q. Xuddi shunday, harom konsepti ruschada “запрещённый” yoki “недозволенный” lekin diniy-ma’naviy nuqtayi nazar yo‘q. Ko‘rinadiki, har ikkala xalqning maqollarida faqat shu xalqning milliy ongiga taalluqli bo‘lgan tushunchalar mavjudki, ularni tarjima ham qilib bo‘lmaydi, o‘zga tilda ekvivalent maqol ham topib bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va rus tilida olam manzarasining ayrim fragmentlarini maqollar orqali konseptuallashtirish muammolarini turli aspektlarda o‘rganishda ikkala xalq konseptosferasini tashkil qiluvchi asosiy tushunchalar muhim rol o‘ynaydi. Maqollar orqali o‘zbek va rus xalqlarining konseptosferasidagi umumiy va milliy-xususiy belgilar aniqlanadi.

Yuqorida bayon etilgan bosqichli tahlil o‘zbek va rus paremiologik birliklarini yagona tartibda tavsiflash imkonini beradi. Muammoning o‘rganilganlik darajasidan ko‘rinadiki, o‘zbek tilshunosligida bu ikki tildagi

maqollarning lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatlarini birlashtirgan kompleks tavsif modeli ishlab chiqilmagan edi. Tadqiqotda taklif etilayotgan model paremiologik birlikni semantik, konseptual va madaniy qatlamlar birligida tavsiflashga asoslanadi (1-jadval).

1-jadval

Paremiologik birliklarni kompleks tavsiflash modeli

Qatlam	Tahlil birligi	Tahlil vositasi	Aniqlanadigan natija
Semantik qatlam	Maqolning ikkilamchi nominatsiya mahsuli sifatidagi ma’nosi va semantik-sintaktik strukturasi	Ikkilamchi nominatsiya tahlili; metaforizatsiyaning zoomorf, predmetli, mifologik va antropomorf turlari	Ma’no ko‘chishi va obraz hosil bo‘lish mexanizmi
Konseptual qatlam	Freym, ssenariy va tayanch konsept	Zidlik, metaforik va simvolik freymlar; ssenariy tahlili; inson va tabiat tayanch konseptlari	Maqol zamiridagi bilim strukturasi va uning kommunikativ voqelanishi
Madaniy qatlam	Madaniy kod va milliy realiya	Personal, biomorf (zoomorf va fitomorf), oziq-ovqat, rang-tus va miqdoriy kodlar; lakunalar tasnifi	Milliy o‘ziga xoslik va tillararo moslik darajasi

Modelning ilmiy qiymati shundaki, u paremiologik birlikni alohida-alohida aspektlarda emas, uch qatlamning o‘zaro bog‘liqligida tavsiflaydi: semantik qatlamda aniqlangan ma’no ko‘chishi mexanizmi konseptual qatlamda freym va ssenariy strukturasi orqali izohlanadi, konseptual qatlamda aniqlangan bilim strukturasi esa madaniy qatlamda milliy kod va lakuna sifatida voqelanadi. Aynan shu bog‘liqlik modelning qardosh bo‘lmagan tillarning paremiologik fondini kontrastiv tadqiq etishdagi metodologik imkoniyatini belgilaydi.

XULOSA

1. Nomlash jarayoni obyekt, subyekt va til vositalari uchligiga asoslanishi hamda birlamchi va ikkilamchi turlarga bo‘linishi aniqlandi. Tadqiqot maqolning aynan ikkilamchi nominatsiya mahsuli ekanligini ko‘rsatdi: maqol muayyan hayotiy vaziyat, hodisa va xulq-atvorni metafora, ramz yoxud milliy-madaniy obraz orqali qayta nomlaydi. Ushbu natija maqolni nominatsiya nazariyasi doirasida o‘rganish uchun nazariy asos yaratadi.

2. Maqolning frazeologizmdan kommunikativ mustaqilligi va didaktik mazmuni bilan, parafrazdan esa nominativ emas, balki xulosaviy-umumlashgan ma’no ifodalashi bilan farqlanishi aniqlandi. Mazkur differensial belgilar maqolni frazeologiya tarkibiga singdirmasdan, til tizimida alohida paremiologik va kognitiv birlik sifatida o‘rganish zarurligini asoslaydi.

3. Maqollardagi metaforizatsiya hodisasi zoomorf, predmetli, mifologik va antropomorf turlarga ajratilgan holda tahlil qilindi. Ushbu to‘rt tur birgalikda inson tajribasi, hayvonot va tabiat dunyosi, moddiy madaniyat hamda mifologik tasavvurlarni yagona konseptual tizimga birlashtirishi isbotlandi. Aynan shu birlashtiruvchi vazifa maqol matnining ixcham shaklda keng ma’no va mazmun uzatish qobiliyatini ta’minlaydi.

4. Maqolning til kognitiv tizimidagi o‘rni freym va ssenariy tushunchalari doirasida aniqlandi: maqol alohida freym sifatida namoyon bo‘lib, o‘zida muayyan ssenariy qismlarini mujassamlashtiradi. Zidlik, metaforik va simvolik freymlarning kognitiv grammatik hamda kognitiv semantik tahlili maqolni til birligi sifatida o‘rganish mumkinligini isbotladi.

5. Madaniy kodlarning personal, biomorf (zoomorf va fitomorf voqelanishlarida), oziq-ovqat, rang-tus va miqdoriy guruhlar bo‘yicha tasnifi ishlab chiqildi; shu tasnifga ko‘ra har bir guruh ichida ikki tilning kod tizimlari qay darajada mos kelishini aniqlash imkoniyati yaratildi. Aynan shu moslik darajasi o‘zbek va rus maqollari orasidagi lakunalarni farqlash mezoni ekanligi asoslandi: kod ham, obraz ham muqobilsiz bo‘lganda to‘liq lakuna, kod mos kelib obraz farq qilganda madaniy-obrazli lakuna, konseptual mazmun mos kelib ifoda ko‘lami farq qilganda esa qisman lakuna yuzaga kelishi aniqlandi.

6. Maqollarning jamiyatda keng qo‘llanishi jarayonida vaziyat, aktual mavzu talabi va hududiy xoslanishga ko‘ra, tarixiy voqelik bilan bog‘langan holda transformatsiyalashuvi aniqlandi. Transformatsiya natijasida maqolning shakli o‘zgarsa-da, uning zamiridagi madaniy kod saqlanib qolishi isbotlandi. Shu asosda maqolning turli variantlari yagona madaniy mazmunning ko‘rinishlari sifatida belgilandi.

7. Konseptosferaning muayyan xalq milliy-madaniy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiruvchi kognitiv tizim ekanligi asoslandi. O‘zbek va rus maqollaridagi universal hamda milliy konseptlarni chog‘ishtirish har ikkala xalq maqollarida faqat shu xalq milliy ongiga taalluqli, tarjima qilib ham, o‘zga tilda ekvivalentini topib ham bo‘lmaydigan konseptlar mavjudligini ko‘rsatdi.

8. Qiyosiy tahlil natijasida o‘zbek va rus maqollarida hayot, mehnat, sabr, oila, do‘stlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni ifodalovchi universal konseptlar mavjudligi aniqlandi. Milliy va universal konseptlarning majmui maqolning ikki qatlamli tabiatini ochib beradi: maqol bir vaqtning o‘zida milliy o‘ziga xoslikni saqlovchi va xalqlar o‘rtasidagi madaniy-kommunikativ aloqani ta’minlovchi lingvomadaniy fenomen ekanligi isbotlandi.

9. “Mehmondo‘stlik” konsepti misolida universal konseptning milliy voqelanishi tahlil qilindi. Konseptning kognitiv tuzilishi markaziy va periferik komponentlardan tashkil topgani, har ikkala xalq mentalitetida “mehmondo‘st bo‘lish yaxshi” postulati amal qilishi aniqlandi. Mazkur umumiylik har bir tilda o‘ziga xos obraz va realiyalar orqali ifodalanishi ko‘rsatildi; bu esa universal konsept bilan milliy madaniy kodning maqol tarkibida uyg‘unlashuvini tasdiqlaydi.

10. Tadqiqot natijalari o‘zbek va rus maqollarini semantik, konseptual va madaniy qatlamlar birligida kompleks tavsiflash imkonini berishi asoslandi: semantik qatlam ikkilamchi nominatsiya va metaforizatsiya tahlili orqali, konseptual qatlam freym, ssenariy va tayanch konseptlar tahlili orqali, madaniy qatlam madaniy kodlar va lakunalar tahlili orqali ochib berildi. Ushbu uch qatlamni birlikda tavsiflash qardosh bo‘lmagan tillarning paremiologik fondini chog‘ishtirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/2025.27.12.Fil.10.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

КОКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ВАЛИЕВА МУХАЙЁ САЛИМОВНА

ЛИНГВОКОГНИТИВНОЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ УЗБЕКСКИХ И РУССКИХ ПОСЛОВИЦ

10.00.13 – Сравнительная и сопоставительная лингвистика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИИ

Фергана – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована за номером B2025.4.PhD/Fil16787 Высшей Аттестационной Комиссией Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Кокандском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте (www.fdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Усманов Фархад Фахриддинович** доктор филологических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Собирова Зилола Махмудовна** доктор филологических наук, доцент
	Жураева Бибиш Мухсиновна доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	**Наманганский государственный университет**

Защита диссертации состоится на заседании Научного Совета DSc. 03/2025.27.12.Fil.10.05 по присуждению учёных степеней при Ферганском государственном университете «_____» _____2026 года в _____часов. (Адрес: 150100 город Фергана, улица Б.Маргиноний, 105; Тел: (99873)244-44-02; e-mail: fardu_info@umail.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за номером _____). Адрес: 150100, город Фергана, улица Мураббийлар, 19. Тел: (99873)244-44-02; e-mail: fardu_info@umail.uz)

Автореферат диссертации разослан “_____” _____ 2026 года.

(Реестр протокола рассылки _____от “_____” _____2026 года).

М.Ю.Мамажонов
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.н, профессор

А.И.Саминов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.ф.н., (PhD), доцент

М.Т.Абдупаттоев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.ф.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В связи с возросшим вниманием в мировой лингвистике к механизму общения между членами общества, на современном этапе развития языкознания все более важным становится подход к элементам языка с антропоцентрической точки зрения, их оценка с точки зрения взаимоотношений «язык и его носитель». В результате сложилась когнитивная лингвистика, направленная на изучение познавательной деятельности человека, исследующая проблемы соотношения языка и сознания, роль языка в категоризации мира, отражающая взаимосвязи бытия-языка-сознания, а также коммуникативная лингвистика, направленная на изучение этих процессов в контексте социальных, психологических, национально-культурных, ментальных и аксиологических аспектов. Живое общение особенно примечательно богатством коннотаций, окказиональным применением слова, богатством средств, которые обеспечивают краткость, ясность и привлекательность мыслей. Пословицы, являясь одним из явлений, ярко отражающих богатые ментальные особенности народа и его восприятие действительности, имеют важное практическое значение при их исследовании в единстве языка и сознания, а также языка и культуры.

В мировой лингвистике большое внимание уделяется изучению паремиологических единиц, в частности пословиц, которые отражают образ жизни, мировоззрение и когнитивную деятельность народа, а также их роли в коммуникации в антропоцентрическом аспекте, раскрытию их прагматических и лингвокогнитивных особенностей. В научных школах лингвистики ведётся ряд исследований, направленных на теоретическое и научное осмысление проблем паремиологии, сравнительной паремиологии и лингвокультурологии. Следует отметить, что сравнительный анализ пословиц позволяет выявить как общие черты, так и различия в мировосприятии данных народов. Пословицы представляют собой когнитивное и культурное выражение концептов, а их сопоставительное изучение способствует выявлению межкультурных сходств и различий этих концептов. Поэтому исследование данных единиц, ярко отражающих культурные особенности, в сравнительном и сопоставительном аспектах является теоретически актуальным.

В современную эпоху независимости возникла необходимость развивать лингвистику и поддерживать стремление молодежи к изучению как родного, так и иностранных языков. Поскольку мы стремимся построить конкурентоспособное государство, крайне важно создать новую систему обучения иностранным языкам, которая послужит надежным фундаментом для будущего[1]. Для вывода процесса популяризации изучения иностранных языков в нашей стране на качественно новый уровень были определены

[1] Mirziyoyev. Sh. Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor materiallari. 06.05.2021. https://president.uz/oz/lists/view/4327 (murojaat sanasi 30.10.2024).

такие конкретные задачи как развитие основных языковых навыков – аудирования, чтения, письма и говорения; а также привлечение местных и зарубежных экспертов для обеспечения глубокого владения иностранными языками[2]. В этом контексте особое значение приобретает сравнительное изучение паремиологических единиц (в частности, пословиц) двух языков; их анализ позволяет выявить общие черты и отличительные особенности, присущие обеим культурам. В последние годы появилось немало научных работ, посвященных изучению особенностей пословиц и тому, как они отражают культуру, мировоззрение и образ жизни народа. Однако многие из этих исследований были сосредоточены на одном языке или культуре в отрыве от других. В то же время недостаточно исследований, посвященных сравнительному анализу узбекских и русских пословиц в лингвокогнитивном и лингвокультурологическом аспектах.

Диссертационное исследование содействует решению задач, обозначенных в Законе «Об образовании» № ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 года, Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», № УП-6884 от 20 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», № УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», № УП-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сфер образования, воспитания и науки в новый период развития Узбекистана», № ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», Постановлении Кабинета Министров № 610 от 11 августа 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в сфере науки и образования.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в республике I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в условиях развития информационного общества и демократического государства в социально-правовой, экономической, культурной и духовно-просветительской сферах».

Степень изученности проблемы.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvar VM-34-son Qarori https://lex.uz/ru/docs/-5831978?ONDATE=20.10.2022%2000 (murojaat sanasi 30.10.2024).

Язык является не только средством общения, но и выполняет функцию формирования мышления, а также сохранения культуры народа. Взаимосвязь языка, мышления и культуры была исследована и всесторонне освещена в ряде научных работ таких учёных, как Дж.Лакофф, М.Джонсон, Ч.Филлмор, Р.Лангакер, А.Вежбицкая, В.Телия, В.Маслова и Ю.Степанов[3]. В узбекском языкознании основоположником когнитивного направления был Ш.Сафаров[4]. Также, учёный-лингвист А.Г.Мухиддинов[5] в своей докторской диссертации, посвящённой лингвокогнитивным и лингвокультурологическим проблемам, доказал, что язык и мышление представляют собой неразделимую когнитивную систему, а содержание культуры выражается в сознании человека посредством языка.

Пословицы и поговорки широко исследованы в антропоцентрическом, аксиологическом, когнитивном, структурно-семантическом, сравнительно-типологическом, лингвопоэтическом и лингвокультурологическом аспектах. В данных исследованиях анализируется проявление связи языка и культуры в пословицах, роль метафоры в человеческом мышлении, общие и национальные особенности пословиц, а также их образность. В мировом языкознании вопросами паремиологии занимались учёные В.Миедер, А.Крикманн, Н.Р.Норрик, А.Тайлор [6] . Также в русском языкознании значительный вклад в изучение пословиц внесли такие учёные, как Е.В. Иванова, Б.Т.Кашароков, Е.А.Ошева, Н.Н.Семененко, Л.А.Бабитова, Е.А.Иванчикова, Е.Кубрякова и Г.Пермяков [7] . В частности, в фундаментальном труде М.И.Шахновича «Русские пословицы и поговорки как исторический источник» (1936), «Краткая история собирания и изучения русских пословиц и поговорок» (1936) особое внимание уделено пословицам.

---

[3] Lakoff G., Johnson M., Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980; Fillmore Ch. J.Frame semantics // Linguistics in the Morning Calm: Selected Papers from the SICOL-1981. – Seoul: Hanship, 1982; Langacker R.W. Cognitiv Grammar: A Basic Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2008; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996; Телия В. Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа Языки русской культуры, 1996; Маслова В.А. Лингвокультурология. 4-е изд., стер. – М.: Академия, 2010; Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа Языки русской культуры, 1997.

